


QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI



QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
MINISTRLAR KENGESININ
BIYLIGI

2023 - yil 10 - mart

44-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

Respublikada Navro'z umumxalq bayramini munosib nishonlash hamda muborak Ramazon oyini qarshi olishga tayyorgarlik ko'rish, mahallalar, aholi turar joylari, xiyobonlar, ziyoratgohlar, qabristonlar hamda bolalar maydonchalarini obodonlashtirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ko'kalamzorlashtirish tadbirlarini davom ettirish, sog'lom turmush tarzi hamda sanitariya-gigienik madaniyatni targ'ib qilish, shuningdek aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami qo'llab-quvvatlash hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 4-martdagi 91-F-son farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 4-martdagi 91-F-son farmoyishi jiro uchun rahbarlikka olinsin.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur farmoyishi bilan O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondi, O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Tabiiat resurslari vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda jamoatchilik vakillarining 2023 yil 11 mart kuni ma'mlakatimizning barcha hududlarida "Obod va fayzli mahalla – yurt ko'rki" shiori ostida umumxalq xayriya hasharini o'tkazish to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
3. 2023 yil 11 mart kuni "Obod va fayzli mahalla – yurt ko'rki" shiori ostida umumxalq xayriya hasharini o'tkazish bo'yicha ishchi guruh tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Ishchi guruh (A.Damiyarov), mutasaddi vazirliklar, Nukus shahar va

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, shuningdek tuman (shahar) mahalliy byudjellarining qo'shimcha mabvalari (mahalliy byudjellar daromadlarining choraklar yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismining 10 foizidan tashqari), homiylik xayriyalari, "Mahalla" fondi mablag'lari hamda qonunchilik hujjatlarida taqdiqlanmagan boshqa mabvalar hisobidan mahalla fuqarolar yig'inlari orqali aholiga bepul ko'chat tarqatish va daraxt ekish ishlarini tashkil etish;

"Mahallamga 10 tup daraxt - mening tufham" shiori ostida barcha turar joy mavzolari va mahallalarda iqlim sharoitiga mos hamda sug'orish tizimini hisobga olgan holda daraxt ko'chatlari ekish;

aholi punktlarida qarovsiz qolgan daraxtlarni saqlash va parvarish qilish hamda ushbu hududlarni ko'kalamzorlashtirish, mazkur tadbirlarga aholining band bo'lmagan qatlamini ixtiyoriylik asosida jalb qilish;

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi jamoat ishlari jamg'armasi mablag'lari hisobidan har bir mahallada daraxtlarni parvarishlash ishlarini haq to'lanadigan jamoat ishi ko'rinshida tashkil qilish;

ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari, ayniqsa ehtiyojmand, mehnat-muruvvatga muhtoj, boquvchisiz qolgan keksa va nogironligi bo'lgan fuqarolarning uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashish;


mahallalar, aholi punktlari, ko'p qavatli turar joylar hamda hovlilar atrofi, guzarlar, xiyobonlar, ziyoratgohlar, qabristonlar hamda bolalar maydonchalarini tartibga keltirish;


obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ish-tirokchilarini zarur texnika vositalari va anjomlar bilan ta'minlash;

xayriya hashari doirasida bo'lmagan boshqa turdagi jamoat ishlari, shu jumladan, qurilish-ta'mirlash va qishloq xo'jaligi ishlariga majburiy jalb etishga qat'iy yo'l qo'yilmagan holda amalga oshirish;

joylarda obodonlashtirish ishlari o'tkazilishi jarayonida to'plangan chiqindilarni mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa mutasaddi tashkilotlar tomonidan alohida belgilangan joylarga olib chiqilishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berrishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018 yil 10 maydagi 349-son qaroriga muvofiq xayriya





ШТБ, ТТБ бошлиқлари,
Республика ДПМлари
раҳбарларига

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 4 мартдаги 91-F-сон фармойиши ҳамда Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 2023 йил 8 мартдаги 09-06342-сонли хати ижро учун юборилмоқда.

Мазкур фармойишга мувофиқ:

“Маҳалламга 10 туп дарахт - менинг туҳфам” шиори остида барча соғлиқни сақлаш объектларида иқлим шароитига мос ҳамда суғориш тизимини ҳисобга олган ҳолда дарахт кўчатлари экиш;

хайрия хашарини бошқа турдаги жамоат ишлари, шу жумладан, қурилиш-таъмирлаш ва қишлоқ хўжалиги ишларига мажбурий жалб этишга қатъий йўл қўйилмаган ҳолда амалга ошириш;

жойларда ободонлаштириш ишлари ўтказилиши жараёнида тўпланган чиқиндиларни маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари ва бошқа мутасадди ташкилотлар томонидан алоҳида белгиланган жойларга олиб чиқилишини таъминлаш;

Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида мажбурий меҳнатга барҳам беришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2018 йил 10 майдаги 349-сон қарорига мувофиқ хайрия хашарини тегишли ташкилотлар ҳудудида меҳнат муҳофазаси ва техника хавфсизлиги қоидаларига қатъий риоя этган ҳолда ўтказиш;

2023 йил “8” март 09-06342 - сон автомобиль йўллари, ҳаракатланиш тигиз бўлган кўчалар, сув объектлари, қирғоқ бўйи ҳудудлар ва зоналар, қурилиш майдонлари, бино ва иншоотлар томлари, хавфли ишлаб чиқариш объектлари, шунингдек инсонларнинг ҳаёти ёки соғлиғига хавф туғилиши мумкин бўлган бошқа жойларда ихтиёрий ташаббус билан тадбирлар ва бошқа ишларни ўтказиш тақиқланганлигини қатъий назоратга олиш;

тарғибот-ташвиқот тадбирларини жойларда иш берувчилар томонидан хайрия хашарида кўзда тутилган ишлар учун ходимларни мажбурий тарзда жалб этишга қатъий йўл қўйилмаган ҳолда ташкил этиш чораларини кўришингизни сўраймиз.

Шунингдек, аҳоли орасида республикада амалга оширилаётган ободонлаштириш ишлари, соғлом турмуш тарзи ҳамда санитария-гигиеник маданиятни тарғиб қилиш мақсадида жойларда давра суҳбатлари, семинарлар ва бошқа тадбирларни ташкил этган ҳолда хайрия хашари давомида санитария-эпидемиологик талабларга риоя этилишини назоратга олишингизни сўраймиз.

Илова ___ варақда.

Вазир ўринбосари

Т.Сарбаев